

## **“F.M.YANOV-YANOVSKIY KOMPOZITORLIK USLUBINING O‘ZIGA XOSLIGI XUSUSIDA”**

**To‘raeva Charos Ne‘matovna,**

Jizzax Davlat pedagogika instituti

2 kurs magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada F.M.Yanov-Yanovskiy ijodiyotiga, asarlarining turli janrlariga nazar solinadi. Uning kompozitorlik uslubining o‘ziga xosligi zaminida qanday musiqiy ifoda vositalari ishtirok etishi, uning musiqiy tilida hosil bo‘lgan xususiyatlar shakllanishiga qisqacha sharh beriladi. Shu xususda uning 4 – Fabulasi ta’riflanadi. Ushbu asarning zaminida shakl va mazmun hosil etuvchi asosiy “sekunda”li intonatsiyasi ko‘rib chiqiladi.

**Kalitli so‘zlar:** kompozitor, uslub, janr, shakl, fabula, syujet, musiqiy til, tafakkur.

Ma’lumki, musiqa san’atida kompozitorlik uslubi ijodkorning birinchi asarlaridan shakllana boshlaydi. Ushbu uslub uning ba’zida katta hajmga ega bo‘lmagan asarlarida musiqiy ifodaviylikning u yoki bu darajadagi yorqinligi bilan o‘zini namoyon etadi. Musiqa olamida dong‘i ketgan kompozitorlarning uslubi ko‘p hollarda bir yo‘nalishda bo‘lib, ularni birinchi tovushlaridanoq ajrata olamiz. Ularning musiqiy tili kompozitorning uslubini yorqin ifoda eta olishi musiqiy tovushlar – yangrashlar olamida ma’lum yaratuvchini o‘z o‘rnini egallashida asosiy zamin bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti shu qadar takomillashganki, ba’zida musiqiy til ifodaliligini konseptual darajadagi toifalar qoplashi hech kimga sir emas. Biroq, hozirgi kunda ham musiqiy bastakorlik asosini tashkil etuvchi bazaviy ifoda vositalari-kuy, ritm, garmoniya, faktura, shakl kabilarni ijodiy usulining negizi sifatida qabul etgan ijodiyot namunalari tinglovchilar va tadqiqotchilar diqqat e’tiborini qamrab kelmoqda. “Intonatsion manbalar, proobrazlar tovush tasviriyligi yoki nutq intonatsiyasining o‘zlashtirilishiga, musiqaning o‘zidayoq shakllangan mavzuiy modellar va stereotiplarni qayta intonatsiyalanishiga borib taqalmaydi. Proobrazlar a priori reglamentga bo‘ysunmaydi”.

F.M.Yanov-Yanovskiy kompozitorlik uslubi o'zining chuqur falsafiy teranligi, musiqiy ifoda vositalarining zamonaviy tarzda sintezlashuvi va shu bilan asarning badiiy maqsadini o'ziga hos ifoda etilishi bilan hozirgi kunga kelib bir necha avlodni birlashtirgan o'zbek kompozitorlik maktabi vakillari orasida betakrorligi bilan ajralib turadi. Albatta, bunda kompozitorning G'arb va Sharq musiqiy tafakkurini o'zida mushtarak etganligi qudratli harakatlantiruvchi kuchdir.

Uning ovoz va kamer orkestr uchun XX asrda yozgan bir qator asarlari ("Povest o Chili", "Poeticheskie strofi", "Rubayyat", "Odi et amo", "Rekviem", "Strasti po Sv. Marku" va boshqalar) dan tashqari XXI asrda yaratilgan ("Stabat Mater", "Beauty pacific", ovoz va orkestr uchun yozilgan "Fabula"lar turkumi va bir qator asarlari) o'zining yetukligi va kompozitorlik texnikasi tomonidan betakrorligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda yosh kompozitorlar avlodi yaratayotgan asarlarning salmoqli hissasi F.M.Yanov-Yanovskiy muvaffaqiyatli qo'llagan kompozitorlik texnikalarini namoyish etadi.

Vokal turkumlar, alohida olingan qo'shiq va romanslar, ovoz, ansambl va orkestr uchun asarlar, estrada yo'nalishidagi qo'shiqlarning barchasi – kompozitor ta'kidlaganidek, lirik obrazlar doirasini chuqur ifodalab berishga imkon yaratadi. Aynan shu yo'nalishdagi musiqada kompozitor o'zi sharhlab bergan romantik an'ananing davomchisi sifatida gavdalanadi. F.Yanov-Yanovskiy uchun chuqur va ba'zida bilinar-bilinmas shaxsiy his – tuyg'ular siri o'ta muhim bo'lib, insonning ichki olami va betakror tabiat uyg'unligi kompozitorni ushbu mavzularga qayta va qayta murojaat qilishga undaydi. Ushbu obrazlarning barchasiga, matn tanlash borasidagi mahorat va ularning musiqiy timsollariga o'ta ehtiyotkorlik va bejirimlik asosidagi individuallik va zamonaviylik bilan yondoshgan.

"Concerto grosso" asarida (1972) kompozitor qadimgi janrning an'anaviy qonunlarini solo va tutti galma-galligi, sonatali allegro chegarasida refrenlilik elementlari, mavzuiylikning o'ziga xos (neoklassik) shu bilan birga zamonaviy ohanglarga yaqin bo'lgan bo'yoqlarini tiklashga intiladi. Lekin koncherto grosso o'zbek musiqasi bilan bog'liq bo'lmagan ohanglar doirasida yuzaga kelgan bo'lsa,

F.M.Yanov-Yanovskiyning boshqa asari – orkestr konserti (1973) koncherto grosso janrining mahalliy materiali zaminida yuzaga kelganligi bilan ahamiyatlidir. U qadimgi klassik shakllarni zamonaviy tarzda talqin qiluvchi besh qismli (Prelyudiya, Intermesso, Tokkata, Intermesso, Basso ostinato) turkumidir. Bunday niyat o‘zbek musiqa uslubiyoti (xususan maqomlar uslubi)da amalga oshirilishi diqqatga sazovordir.

1992-yil F.M.Yanov-Yanovskiy skripka va orkestr uchun bir qismli 3 - konsert “Fabula” ni yozadi va bu yangilik uning cholg‘u ijodida o‘ziga hos sahifani ochib beradi. Shundan so‘ng kompozitor shunday nomda, faqat turli orkestr tarkibi uchun “Fabula”lar turkumini yozadi. Ulardan *Fabula 1* skripka va orkestr, *Fabula 2* violonchel va orkestr, *Fabula 3* alt va orkestr, *Fabula 4* ovoz va kamer orkestr, *Fabula 5* fleyta bilan orkestr, *Fabula 6* tuba va orkestr, *Fabula 7* fortepiano va orkestr uchun yozilgan bo‘lsa, yangi *Fabula 8* orkestr va erkaklar xori uchun yozilgan. Bu asarlarning asosida yirik konsert shaklining yangi konsepsiyasi shakllanganini aytib o‘tish joiz. Natijada esa kompozitorning oltita bo‘limdan iborat yangi, ulkan turkumi “Fabula”lar yaraldi. “Nazarimizda fabula – g‘oyaning asosidir, kompozitor tomondan janr va shaklning tanlovidir. Muayyan matoda amalga oshgan holda fabula – keyinchalik badiiy g‘oyaning yuksak ma’nodagi amalga oshirilishining anglashuvidagi syujetni tashkil etadi. Ya’ni, syujet janr, shakl asosida o‘sib ularni o‘z ichiga oladi. Fabula – bu syujet oldida ochilgan istiqbollari deyishimiz ham mumkin. Abstraksiya muayyan badiiy asarga aylanadi. Boshqachasiga, fabula – bu g‘oya, syujet esa uning amalga oshishi”.

Shakl bu nafaqat tuzilishli tarixdir. Balki u bir qancha avlod bilan tinglab, tekshirilayotgan, ya’ni ijtimoiy topilgan (yoki qanday va qaerda taxlangan) musiqiy materialning tashkillanishi (vaqt davomida qonuniy tarqalishi), boshqacha qilib aytganda, musiqiy harakatni tashkil qilish, chunki harakatlanmaydigan musiqiy materialning o‘zi yo‘q. Tabiiyki, ushbu tashkillanishning tamoyillari yakka ongli emas, balki ijtimoiy tamoyillarga asoslanadi. Ular amaldagi ehtiyojlar oqibatida vujudga keladi, muhit ularni o‘zlashtirib, eng zaruriylarini tavsiya etadi.

Shakl jarayon sifatida ham, kristall tarx (to‘g‘rirog‘i tuzilish) sifatida ham

bir hil ko‘rinishda, ya’ni ifodaviy tovushlar aro harakatni tashkil qilish orqali namoyon bo‘ladi.

Ovoz va 9 cholg‘u uchun yozilgan “Fabula - 4” konsertida ilk mavzu sekunda intervali bo‘yicha yuqoriga intiluvchi xarakter bilan boshlanadi. Ushbu boshlang‘ich nuqta impulsni tashkil etadi. Ya’ni shu kichik sekundali intonatsiya asosida yuqoriga intilish harakati belgilangan bo‘lib, uning ma’nosi butun asarga to‘g‘ri keladigan asosiy ma’noni (inson hayotidagi to‘rt davrni ) aks ettiradi.

Ovoz va 9 cholg‘u uchun (Fabula – 4) konserti shakl rivojlanishi va uning o‘rnatilish tamoyillari kompozitorning badiiy maqsadidan kelib chiqadi. Badiiy maqsad esa ovoz va cholg‘ular uchun polifonik uslubdagi lo‘nda va aniq musiqiy til orqali falsafiy mushohadalarga tortuvchi mukammal va shu bilan birga, tinglovchilarga oson yetib boradigan musiqiy asarni yaratishdan iborat. Kompozitor ushbu maqsadni muvaffaqiyatli qozongan bo‘lib, uning ifodasi asarning birinchi taktlaridan tinglovchini o‘ziga rom etadigan ohanglarda o‘z aksini topgan. Asarning boshidagi sekundali intonatsiya kompozitor o‘zi ta’riflashicha, segohli, (ya’ni segoh maqomining boshlanishi) bo‘lib, ushbu ikki tovush asarning o‘zagini tashkil etadi. Undan unib, o‘sib, rivojlangan mavzu keyinchalik asarni takomillashuvida va uning shaklini hosil qilishda o‘ziga xos “qurilish materiali”ni tashkil etadi. Ikkinchi qismda ushbu mavzular o‘zaro faol taqqoslama tarzda, to‘qnashuvlar orqali musiqiy material xarakterini belgilab beradi. Sekundali intonatsiyaning (yuqori yoki quyi) musiqiy fikrning asosiy bazasi sifatida ishlatilishi XX asr O‘zbekiston kompozitorlari ijodida faol qo‘llanilgan. “...kuy rivojlanishining boshlang‘ich “o‘zagi”ni xarakterlovchi sekundali intonatsiyalar ko‘plab ishlatiladi. S.Yudakovning “Festival uvertyurasi”da mavzuning asosiy o‘zagi (sekundali) butun musiqiy asarning o‘sib rivojlanishiga o‘ziga xos “turtki” vazifasini o‘taydi. Ya’ni, sekundali asos keyinchalik turli intervallar qurshovida qayta va qayta kuy tuzilishiga zamin yaratadi”.

Shu o‘rinda polifonik uslub nafaqat mavzuga nisbatan, balki ushbu mavzuni cholg‘ular va ovozda o‘tkazilishida qatlamli rivojlanishni tashkil etadi. Ikkinchi qismda ushbu qatlamlar polifoniyasi birinchi qismda bayon etilgan asosiy

mavzulanishlarni rivojlantirib, shuningdek, yangi element – ritmik ostinatoning kiritilishi bilan dramaturgik jihatdan faol rivojlanishni hosil etadi. Ushbu yangi ostinatoli motiv xarakterning jadallashuvini (2 violonchel) hamda o‘zining ritmik aylanmasini boshqa ovozlarda (1 violonchel, 2, 4 skripka) vujudga keltiradi. Ostinatoning akkordli ko‘rinishdagi varianti 3 skripka (pitsikato)da bir kuy ritmik formulaning erkin pauzalanishdagi takrorlanishiga asoslanadi.

Asarning musiqiy tili asosida polifonik uslublar yotadi. Ularning aksariyati klassik uslublar bo‘lib, bayonlanish jihati bo‘yicha erkin usulda qo‘llanilgan. Konsert monointonatsion mavzuiylikka tayangan bo‘lib, shaklning tuzilishi aynan shu jihatga bog‘liqdir. Mavzuiylik asosini yagona sekundali (segoh) intonatsiyasi tashkil etadi. Orkestr musiqiy matosi ovoz bilan birga cholg‘ularning guruhlanishi usulida bayonlanib, ushbu guruhlar tarkibi musiqiy ifodalanish mantiqi jarayonida diagonal bo‘yicha xarakterlanadi. O‘z o‘rnida mavzularning kontrapunktlashuvi jarayoni qatlamlar polifoniyasini vujudga keltiradi...

Feliks Markovich “zamonaviy kompozitorlik texnikasini qanday tushunasiz?” savoliga shunday javob berganlar: “Ba’zi odamlar zamonaviy musiqani kompozitorlik yozuvining zamonaviy texnikalari bilan bog‘laydi, lekin bu haqiqatning bir qismi, xolos. Kimdir – “Musiqada **qanday** emas, **nima** muhimdir” deganini eslayman. Bugungi kunda “qanday” bilan hech kimni qoyil qolirmaysiz, yangi texnikalarning paydo bo‘lishi – kompozitsiyada zarur qadam edi. Bu qadam kompozitorlarga yangi imkoniyatlar, yangi vositalarni ochdi, ammo ularning ketidan **NIMA** turibdi?”...

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ye.Ruchevskaya. Funkcii muzыkalnoy temы. “M”., L., 1977 (161s.)
2. Asafev B.V. “Muzыkalnaya forma kak protsess”. “M”., L., 1971. (376s.)
3. N.S.Yanov-Yanovskaya. «Fabula i syujet v ix proeksii na muzыku», //«Musiqiy san’atda an’ana va zamonaviylik»// Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plami. T., “Musiqqa”. 2018. (s.3-6)

4. Radjabova M.A О стилевых особенностях симфонических произведений композиторов Узбекистана. //Проблемы современной науки и образования.2020№3 (148) (s.98-101)
5. Ganixanova. Sh. F.M.Yanov-Yanovskiy. Shtrixi k portretu.//  
<http://www.musigi-dunya.az/new/added.asp?action=print&txt=857>  
8.11.2020
6. Abdullaeva E. Feliks Yanov-Yanovskiy. Monografiya. Tashkent, 2015